

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGINING 2025-YILDAGI FAOLIYAT YAKUNLARI HAQIDA AXBOROT

Suv resurslarini samarali boshqarish, suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalarni joriy qilish, irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish hamda agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazish hisobidan 2025-yilda jami 10 mlrd. m³ tejaldi.

887 ming gektar maydonlarda suv tejovi texnologiyalar, jumladan, 104 ming gektarda tomchilatib sug‘orish, 31 ming gektarda yomg‘irlatib sug‘orish, 14 ming gektarda diskret sug‘orish, 124 ming gektarda boshqa turdagi texnologiyalar joriy qilindi. 614 ming gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari lazerli uskunalar yordamida tekislandi.

Irrigatsiya yo‘nalishida 705,4 km kanallar, 157,8 km sug‘orish (lotok va quvur) tarmoqlari, 73 ta gidrotexnik inshoot, 10 ta (53,2 m³/sek) nasos stansiyasi, 46 ta sug‘orish qudug‘i, 6,3 km nasos stansiyalarining bosimli quvurlari, 13,4 km qirg‘oq himoya ishlari hamda melioratsiya yo‘nalishida 203 km ochiq va 100 km yopiq-yotiq drenaj tarmoqlari, 22 ta gidrotexnik inshoot, 40 ta tik drenaj qudug‘i va 60 ta kuzatuv quduqlarida qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

Vazirlik tasarrufidagi nasos stansiyalarida ma‘nan eskirgan 157 ta nasos va 166 ta elektrodvigatellar yangisiga almashtirildi, 165 ta kondensator, 135 ta chastota, quvvati 752 kVt bo‘lgan quyosh panellari va 5400 litr suv isitish qurilmalari o‘rnatildi. Yil yakuni bo‘yicha 5 994 mln. kVt. soat elektr energiyasi sarflanib, ajratilgan limitga nisbatan 192, 1 mln. kVt. soat elektr energiyasi tejaldi.

Kuzgi-qishki tadbirlar doirasida 3855 km uzunlikdagi sug‘orish kanallari tozalanib, ulardagi 5154 dona gidrotexnik inshoot va 5354 dona gidropostlarda ta‘mirlash ishlari bajarildi. Xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarining 39 993 km uzunlikdagi qismi (7086 km qismi mexanizm yordamida, 32907 km uzunlikdagi qismi qo‘l kuchi yordamida) tozalanib, 7026 dona gidrotexnik inshootlar va 7078 dona gidropostlar ta‘mirlandi. Fermerlarning xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlaridagi 9334 dona suv olish quloqlarida jihozlash ishlari amalga oshirildi. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari hisobida bo‘lgan 2 214 km uzunlikdagi ichki sug‘orish tarmoqlari betonlashtirildi.

“Vaziyatlar markazi” barpo etilib, sohada mavjud barcha axborot tizimlari ma‘lumotlarini yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi “Raqamli suv xo‘jaligi” yagona platformasi yaratildi.

Davlat dasturi doirasida respublika bo'yicha jami 17 ta, shundan, Navoiy, Samarqand va Andijon viloyatlarida 1 tadan, Jizzaxda 2 ta, Farg'onada 8 ta hamda Xorazmda 4 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarining boshqaruvi avtomatlashtirilgan tizimga o'tkazildi.

2 ming 42 ta suv xo'jaligi obyektlari, shundan 34 ta nasos stansiya, 9 ta sug'orish qudug'i hamda yagona suv iste'molchiga xizmat ko'rsatadigan 1 ming 999 ta sug'orish quduqlari xususiy sektor boshqaruviga berildi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilayotgan 5 ta loyihalar doirasida 121,5 mln. AQSh dollari miqdoridagi xorijiy kreditlar va grant mablag'lari o'zlashtirilishi natijasida 387 dona nasos agregatlar, 132 dona elektrodvigatel, 91 dona vakuum nasos, 26 dona kran balka, 296 dona zadvijka, 261 dona klapan, 380 dona KSO shkaf, 141 dona transformator va boshqalar olib kelinib, 1,6 mln yevrolik loyiha va qurilish ishlari bajarildi. 32 km kanal betonlashtirildi.

2026-yilning yilning I choragida amalga oshiriladigan vazifalar:

Respublika bo'yicha jami 625 ming gektar maydonda sho'r yuvish tadbirlari tashkil etiladi.

2026-yilda respublikada jami 503 ming gektar (107 ming gektarda tomchilatib, 34 ming gektarda yomg'irlatib, 25 ming gektarda diskret, 97 ming gektarda boshqa turdagi suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinadi hamda 240 ming gektar yerlarni lazer yordami tekislash) maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish ishlari amalga oshiriladi.

Birinchi chorakda 60,3 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilish rejalashtirilgan. Shundan, 12 ming gektarda tomchilatib, 4,1 ming gektarda yomg'irlatib, 3 ming gektarda diskret, 11,6 ming gektarda boshqa turdagi suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinadi. 28,8 ming gektar qishloq xo'jaligi ekin maydonlari lazerli uskunalar yordamida tekislanadi

15 ta nasos stansiyasiga muqobil energiya manbalari hamda energiya tejamkor qurilmalarni o'rnatish loyihasi amalga oshiriladi. loyiha doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasida 4 ta, Namangan viloyatida 1 ta, Samarqand viloyatida 2 ta, Toshkent viloyatida 4 ta va Farg'ona viloyatida 4 ta nasos stansiyalariga quyosh panellari o'rnatiladi.

Bundan tashqari joriy yilda 156 ta nasos va 149 ta elektrodvigatellar yangilanadi. Hamda 67 ta kondensator, 84 ta chastota o'zgartiruvchi qurilma, 730 kVt quyosh panellari va 26 ta quyosh suv isitkich qurilmalari o'rnatiladi.

Respublika chegarasida suv manbalaridan olinayotgan suv miqdorini real vaqt rejimida kuzatish maqsadida 322 ta raqamli suv o'lchash qurilmalari xarid qilinib O'zbekistonga olib kelinadi hamda o'rnatilishi belgilangan hududlarga yetkaziladi.

Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi uchun 20 ta uchuvchisiz uchish apparatlari (dron) hamda 155 ta bodi kameralar xarid qilinadi.

Manzilli dasturga kiritilgan 114 ta irrigatsiya va 40 ta melioratsiya obyektlarida qurilish, rekonstruksiya qilish ishlari boshlanadi.

Shuningdek, 70 ta obyekt doirasida joriy yilda foydalanishga topshirish belgilangan 68 ta obyektlarda 500 km kanallarni betonlashtirish, 6,2 km lotok va 4,7 km yopiq quvur tarmog'ini rekonstruksiya qilish ishlari yakunlanadi.

2 238 km xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlarini tozalash, ulardagi 1 423 dona gidrotexnik inshootlar, 1 223 dona gidropostlarni ta'mirlash ishlari bilan bir qatorda klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi 3 696 km ichki ariqlarni mexanizm yordamida va 12 ming km ariqlarni qo'l kuchi yordamida tozalash, ichki sug'orish tarmoqlaridagi 12 174 dona gidrotexnika inshootlar va gidropostlarni ta'mirlash hamda fermerlarning 7 725 dona suv olish quloqlarini jihozlash ishlari bajariladi.

Suv xo'jaligi obyektlarida joylashgan 23 ming 433 dona gidropostlar ta'mirlanadi. 705 dona suv o'lchash qurilmasi tarirovka ko'rigidan o'tkaziladi, 52 dona yangidan sotib olinadi. 5083 dona reyka va 115 dona gidrometrik shtangalar sotib olinadi.